

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14740412>

YANGI O‘ZBEKISTON: KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH STRATEGIYASI

Boboyorov B.N.

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Chirchiq filiali

Yoshlar masalasi va ma’naviy-ma’rifiy ishlar

bo‘yicha direktor birinchi o‘rinbosari, f.f.b falsafa doktori (PhD), dotsent.

Toshkent, O‘zbekiston,

Boboyorov Shohmalik

Diplomat University 3-bosqich talabasi, Toshkent, O‘zbekiston.

e-mail: drstrange.38499492@gmail.com

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada korrupsiyaning kelib chiqish sabablari, omillari va shakllari ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilingan hamda mazkur ijtimoiy xavfli qilmishning jamiyat taraqqiyotiga tahdidlari asoslab berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Korrupsiya, pora berish, aldanish, tanazzul, rasmiy vakolatlar, shaxsiy maqsadlar, vakolatlarini suiiste‘mol qilish, huquqbuzarlik, jinoyat.*

***Аннотация:** В данной статье с научной точки зрения анализируются причины, факторы и формы коррупции, а также обосновываются угрозы этого общественно опасного деяния для развития общества.*

***Ключевые слова:** Коррупция, взяточничество, мошенничество, союз, должностные полномочия, личные сели, служение служебным положением, праворушение, преступление.*

Annotation: *This article analyzes the causes, factors and forms of corruption from a scientific point of view and substantiates the threats to the development of society from this socially dangerous act.*

Key words: *Corruption, bribery, deceit, humiliation, official powers, personal goals, abuse of office, offense, crime.*

Kirish

Korrupsiya keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u jamiyatning ayrim qatlamlari, toifalari, guruhlari kundalik faoliyatiga aylanib, o‘zaro bir-biriga bog‘lanib, chirmashib ketganligidan ko‘z yumib bo‘lmaydi. “Nozik”, “chigalroq” ushbu masalada davlatning huquq-tartibot idoralari birmuncha hushyor, ziyrak bo‘lishi, shuningdek, nodavlat tashkilotlari, turli komissiyalar, jurnalistlar, mustaqil sudlar tizimi faolroq ishlashi haqida tadqiqotchilar anchadan beri yozib keladi. Siyosatchilar, sotsiologlar, psixologlar, tarixchilar, davlat hamda jamoat organlari, siyosiy partiyalar, eng muhimi, amaliyotchilar masalani tahlil etish va yechimini topish ustida bosh qotirishi lozim.

Keyingi yillarda xorij, jumladan, MDH mamlakatlari matbuotida korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘llari haqida maqolalar paydo bo‘la boshladi. MDHga a‘zo mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar tahlili shundan dalolat beradiki, biz sho‘rolar tuzumidan qutulganimizga o‘ttiz yil bo‘lganiga qaramay, sud-huquq organlari hamon davlat hokimiyatining itoatkor organiga aylanganicha turibdi. Bu jamiyat kushandasi, yaramas illat haqida davlatimiz rahbari deyarli har bir chiqishida ta’kidlab o‘tadi.

Poraxo‘rlik va korrupsiya o‘zbek jamiyatining rivojlanishiga, xususan, demokratik yangilanish hamda modernizatsiyalash jarayoniga har jihatdan xalaqit bermoqda. Garchi bu masala uzoq yillardan beri ta’kidlanib, “qo‘lga tushgan” amaldorlar televidenie va matbuotda namoyish etilganiga qaramasdan, sud, prokuratura, idora rahbarlari hamda oddiy fuqarolarning qon-qoniga singib ketgan tamagirlik, byurokratiya jamiyatimiz hayotidan yo‘qolib ketmayapti.

Korrupsiya, birinchidan, jamiyatda adolatsizlik, tengsizlik va aholining noroziligiga olib keladi, bu esa barcha sohadagi islohotlarning natijasiga salbiy ta'sir etmay qolmaydi; ikkinchidan, fuqarolarimizda huquqiy ong hamda huquqiy madaniyatning yetarli darajada emasligi, o'z haq-huquqini himoya qila olmasligi jamiyatda adolat mezonining buzilishini ko'paytiradi; uchinchidan, siyosiy institutlar, jamoat tashkilotlari shaklan demokratik mezon, g'arb andozasiga o'xshasa-da, mazmun-mohiyatiga ko'ra, zamon talabidan orqada qolmoqda, bu kamchilik esa oldinga siljishimizga xalaqit beradi.

Davlat va jamiyatda inson ongi, dunyoqarashi bilan bog'liq muammolar tahlilidan kelib chiqsak, sobiq ittifoqdan meros qolgan korrupsiya illatiga qarshi kurashda hali ancha aziyat chekishga to'g'ri keladi. Sababi Xitoy va Singapurlikiga o'xshagan yuqoridan quyigacha qat'iy ishlaydigan ierarxiya tizimi hali to'liq ishga tushmagan.

Lekin bu tabiiy jarayonni sun'iy ravishda sekinlashtirmaslik yoki ayrim kuchlarning tazyiqi ostida "to'xtatmaslik" lozim. Bu borada rivojlangan davlatlar boy tajribasidan unumli foydalanish zarur. Masalan, AQShda reportyor-jurnalistlar korrupsiyaga qarshi kurashda eng samarali jamoat nazoratini o'rnatgan. MDHda, jumladan, O'zbekistonda surishtiruv jurnalistikasi sayoz holatda bo'lib, bugungi davr ehtiyojidan orqada qolmoqda.

Jamiyatda ustuvor soha — ta'lim tizimida tahsil oladigan yoshlar ongida korrupsiyaga qarshi kurashish immunitetini shakllantirish muammosi oldimizda ko'ndalang turibdi. "Jamiyatda poraxo'rlik illatini yengib bo'lmaydi", degan fikr yoshlar ongida shakllanib qolgani (Yaponiya yoki Xitoy fuqarosi ongida nega u shakllanmaganligi alohida mavzu) eng katta kamchiligimiz.

Bu borada o'nglanish, siljish qilmasak, millatimiz obro'siga korrupsiya illati soya solib turaveradi. Toki, biz oilada, bog'chada, maktabda o'g'il-qizlarimiz ongiga, ruhiyatiga tamagirlik, poraxo'rlik yomon illatgina emas, balki u jamiyatimiz tanazzuli, iqtisodiyotimiz orqaga ketishi sababi ekanligi haqida ko'proq tarbiyaviy va targ'ibot ishlarini olib bormasak, maqsad-muddaoga erisha olishimiz qiyin.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Prezidenti tomonidan ilgari surilgan davlat xalqqa xizmat qilishi kerak, degan ulkan g‘oya fuqarolik jamiyati institutlariga tizim va dasturlarni ishlab chiqish imkoniyatini bergan edi.

To‘g‘ri, keyingi vaqtlarda, xususan, 2017 yildan boshlab, mamlakatimizda “parlament nazorati”, “jamoatchilik nazorati”, degan atamalar taomilga kiritildi, bu borada ilk qonunlar qabul qilindi. Demak, biz mazkur sohada ishlaydigan tizimni tezlikda yaratishimiz, milliy mentalitetni hisobga olgan holda, Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari ilg‘or tajribasini qo‘llashga o‘tishimiz lozim. Jamoatchilik nazoratisiz O‘zbekistonda siyosiy tizim islohotlarini amalga oshirib bo‘lmaydi [1].

Ayniqsa, modernizatsiya, yangilanish, islohotlar bilan korrupsiyaning bir-biriga “qoni qo‘shilmaydi”, yangilik bilan eskilik tarafdorlari, fan, innovatsiya, kreativ fikrlovchilar bilan eski byurokratiya avlodi o‘rtasida muttasil kurash davom etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Aksariyat mamlakatlarda "korrupsiya" atamasi huquqbuzarliklarni belgilaydigan qonunlarda qo‘llanilmaydi, aksincha, qoida tariqasida, keng ma‘noda profilaktika choralarni ko‘rish bosqichida qo‘llaniladi va sohada ishonib topshirilgan vakolatlarni bajarish yoki qaror qabul qilishda suiiste‘mol qilishni nazarda tutadi [2].

Korrupsiya uch guruhga ajratish mumkin:

1. To‘g‘ridan-to‘g‘ri (hokimiyatni bevosita suiiste‘mol qilish, noqonuniy boyish, tovlamachilik, favoritizm, qarindoshlik),
2. Bilvosita (ta‘sir o‘tkazish, pora berish, siyosiy pora berish, ovoz berish natijalarini aniqlashda qalbakilashtirishdan foydalanish),
3. Boshqaruv tizimidagi kamchiliklardan foydalanish (davlat mulkidan yoki mablag‘laridan shaxsiy daromad ortirish maqsadlarda qonunlarni qasd buzish, foydalanish, ma‘lumotlardan suiiste‘mol qilish yoki ushlab qolish) .

Xalqaro tashkilotlar ham korrupsiyaga ta‘riflar berishadi. Masalan, BMT Bosh assambleyasi tomonidan o‘tkazilgan korrupsiyaga qarshi mintaqalararo seminar natijasida (Gavana, 1990), mansabdor shaxslarning xulq-atvori to‘g‘risidagi kodeksida

huquqiy tartibotni ta'minlash maqsadida korrupsiya davlat xizmatchilari vakolatlarini shaxsiy yoki guruh manfaatlari uchun suiste'mol qilish, shuningdek, korrupsiya - bu davlat hokimiyatidan shaxsiy manfaati uchun suiiste'mol qilish sifatida belgilangan (BMTning Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha brifingi).

Yevropa Kengashining Korrupsiya bo'yicha guruhining birinchi sessiyasida (Strasburg, 1995 yil 22-24 fevral) korrupsiya "poraxo'rlik (pora orqali og'dirish), shuningdek davlat yoki xususiy sektorda ishlaydigan shaxsning, mustaqil agentning yoki shu kabi boshqa munosabatlarning maqomidan kelib chiqadigan va o'zi yoki boshqalar uchun ortiqcha ustunliklarga erishish maqsadida o'z xizmat vazifalarini suiiste'mol qilish", sifatida ta'riflangan. Bu yerda ijobiy narsa shundaki, bunday harakatlarga moyil bo'lgan kishi ham korrupsiya doirasiga tushadi. Biroq, korrupsiya sub'ektlari doirasining asossiz ravishda kengayishi, ularning noqonuniy xatti-harakatlarini yolg'iz poraxo'rlik bilan cheklashi, shuningdek, so'zlarning amorfligi korrupsiya kontsepsiyasini ishlab chiqishda ushbu ta'rifga ishonish qiyin bo'lishi mumkin. Korrupsiyani ijtimoiy hodisa sifatida o'rganish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, korrupsiya ko'plab olimlarning fikriga ko'ra quyidagi asosiy turlarga bo'linadi:

1. Maishiy korrupsiya - oddiy fuqarolar va mansabdor shaxslarning o'zaro ta'siri natijasida vujudga keladi. Unda fuqarolarning turli xil sovg'alari va amaldorga va uning oila a'zolariga xizmatlari kiradi. Ushbu toifaga nepotizm (nepotizm) kiradi.

2. Biznesdagi korrupsiya - hukumat va biznes o'zaro aloqada bo'lganda yuzaga keladi. Masalan, biznes mojarosida tomonlar o'z foydasiga qaror chiqarish uchun sudyaning yordamiga murojaat qilishlari mumkin.

3. Oliy hokimiyatdagi korrupsiyasi - demokratik tizimdagi siyosiy rahbariyat va oliy sudlarga tegishli. Bu hokimiyatdagi guruhlariga tegishli bo'lib, ularning vijdotsiz xatti-harakatlari o'z manfaatlari va saylovchilar manfaatlariga zarar yetkazadigan siyosat olib borishdir.

Ijtimoiy xavfliligi darajasiga ko'ra:

a) Korrupsiya - bu huquqbuzarlik. "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik" toifasining mazmunini to'liqroq ochib berish uchun ushbu atamaning me'yoriy ta'rifini yo'qligini

hisobga olib, huquq nazariyasiga murojaat qilish kerak. Huquqbuzarlik tushunchasi yuridik fanning asosiy qismlaridan biridir.

Ma'lumki, huquqbuzarliklar bu huquqiy munosabatlar sub'ektlarining huquqiy normativ hujjatlarga mos kelmaydigan harakatlari (harakatsizligi). Odatda, bular jinoiy bo'lmagan korrupsiya harakatlaridir, ya'ni ularning oqibatlari ma'muriy, intizomiy yoki fuqarolik-huquqiy xarakterga ega. Bularga O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida" gi kodeksida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining qonunlarida yoki qonun osti hujjatlarida belgilangan majburiy yoki taqiqlovchi normalar kiradi. Masalan: Ma'muriy javobgarlik to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Kodeksining 43-moddasi - "Fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish", shuningdek ushbu kodeksning 61-moddasi - "Kichkina o'g'irlik". Bular ma'muriy huquq normalari bo'lishiga qaramay agar takroran sodir etilgan bo'lsa yoki bunday xatti-harakatlar og'ir oqibatlarga olib kelsa, jinoiy harakatga aylanishi mumkin.

b) Korrupsiya jinoyat hisoblanadi. Huquqbuzarliklar va jinoyatlar qilmish (harakat yoki harakatsizlik) ning jamoat xavfliligi darajasi bilan farqlanadi. Qoidaga ko'ra, jinoyat Jinoyat kodeksida jazo tahdidi ostida taqiqlangan aybdor ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) deb tan olinadi. Bu shuni anglatadiki, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining Maxsus qismida ko'rsatilgan normalar jinoiy qilmish sifatida qaralishi kerak.

Qanday jinoyatlarni korrupsiya deb tasniflash mumkinligi haqidagi savol hali ham munozarali bo'lib kelmoqda, chunki ushbu konsepsiya hali ham milliy qonunchilikda normativ jihatdan mustahkamlanmagan. Qoidaga ko'ra, qanday jinoyatlar korrupsiya bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi ma'lumotlar Jinoyat kodeksida yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan maxsus qonunda yoki boshqa qonun hujjatlarida, ko'rsatmalarda va boshqalarda bo'lishi kerak. Shuningdek, korrupsiyaviy jinoyatlar tushunchasi bo'yicha konsensus nazariyasida mavjud emas.

Tadqiqotchilar korrupsiyaning asosiy sabablari sifatida to'rtta omilni ko'rsatadilar [3].

Birinchisi - iqtisodiy sabablar. Korrupsiyaning bu ko‘rinishi ijtimoiy va iqtisodiy hayotni bevosita ma‘muriy yo‘l bilan boshqarishga intilgan hokimiyat va byurokratiyaning mavqei baland bo‘lgan davlat sharoitida rivoj topadi. Iqtisodiy faoliyatga nisbatan o‘rnatilgan turli xildagi cheklashlar, amaldorlarning keng, nazoratdan xoli, cheklanmagan yoki ruxsat berish, yoki taqiqlash vakolati korrupsiyaga zamin yaratadi. Shu bilan bog‘liq holda, yirik mablag‘larga ega bo‘lgan ayrim ishbiarmonlar o‘z daromadlarini ko‘paytirish maqsadida va raqobatda alohida imtiyozlarga ega bo‘lish uchun hukumat amaldorlarini pora evaziga sotib olib, ularni o‘z ixtiyorlariga bo‘ysundirishga intiladilar.

Ikkinchisi - huquqiy sabablar. Korrupsiyaning rivoji qonunlarning sifatiga bog‘liqdir. Mukammal bo‘lmagan qonunlar ishlamaydi va ayrim uddaburonlar bundan ustalik bilan foydalanadilar.

Uchinchisi - institutsional sabablar bo‘lib, ularga avvalo, davlat boshqaruvi tizimidagi nuqsonlar, demokratik institutlarning kuchsizligi, shuning natijasida, hukumat faoliyatining yopiqligi yoki fuqarolik nazoratidan xoliligi kiradi.

To‘rtinchisi - ijtimoiy sabablar yoki jamiyatdagi muhit, aholining huquqiy bilimi, madaniyat darajasi, ma‘naviyati, uyushqoqligi va jamoat faolligi pastligi kabi omillardir.

Tadqiqot metodologiyasi

Korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo‘lgan global muammolardan biridir. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, inson huquq va erkinliklarining poymol bo‘lishiga olib keladi. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etishning umumiy strategiyasini amalga oshirish doirasida qonun ustuvorligini ta‘minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, sud-huquq tizimini isloh qilish va bunda korrupsiya jinoyatiga qarshi kurashish yuzasidan qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini tartibga soladigan 12 ta konstitutsiyaviy qonun, 17 ta kodeks va 700 tadan ortiq qonunlar qabul qilinganligi hamda O‘zbekiston mustaqillik yillarida inson huquqlari bo‘yicha 80 dan ortiq asosiy xalqaro hujjatlarga qo‘shilganligi va BMT tomonidan ushbu sohada qabul qilingan 10 ta asosiy xalqaro shartnoma ishtirokchisi sifatida bu sohada tizimli ravishda faoliyat ko‘rsatayotganligi jamiyatda inson huquqlarini himoya qilish ishlarini izchil rivojlanayotganligida ko‘rish mumkin.

Mamlakatimizda keyingi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda [4].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoev “Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo‘l qo‘ymaslik, jinoyatga jazo, albatta, muqarrar ekani to‘g‘risidagi qonun talablarini amalda ta‘minlash bo‘yicha qat’iy choralar ko‘rishimiz zarur” , deb ta’kidlagan edi.

Shulardan kelib chiqib, 2017 yil 3 yanvar kuni “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilinib, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmi yaratildi. Uning asosiy maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir [5].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi hamda 2019 yil 27 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni ham ushbu sohadagi islohotlarni mantiqiy davomidir. Ushbu farmonning 8-bandida 2019 yil 1 avgustdan boshlab eksperiment tariqasida, jamoatchilik va yetakchi ekspertlarni, shu jumladan xorijiy ekspertlarni jalb etgan holda dastlabki bosqichda kapital qurilish va oliy ta’lim sohalarida “Korrupsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirishni tashkil etish vazifasi belgilandi. Ushbu ustuvor vazifalar mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini butunlay korrupsiyadan xoli soha sifatida shakllanishida va rivojlanishida muhim huquqiy asoslardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi PF-6013-sonli “O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinib, mazkur huquqiy hujjatlar asosida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi tashkil etildi.

Sohada amalga oshirilayotgan ushbu mazmundagi islohotlarning natijasi sifatida Transparency International xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan har yili e‘lon qilib boriladigan “Korrupsiyani qabul qilish indeksi” da O‘zbekiston 180 ta davlat orasida 2017 yilda 157-o‘rin, 2018 yilda esa 158-o‘rinni egallagan bo‘lsa, 2019 yilda 25 ball bilan 153-o‘rinni egallab, 5 pog‘onaga ko‘tarildi. 2020 yilda O‘zbekiston 2019 yildagiga nisbatan 7 pog‘ona yuqorilab, indeks bahosida qatorasiga 4 yil davomida barqaror o‘shishga erishdi (2013 yilda 17 balldan 2020 yilda 26 ballgacha).

Bundan tashqari, Jahon odil sudlov loyihasining Huquq ustuvorligi indeksidagi “Korrupsiyadan holilik” indikatorida O‘zbekiston 2019 yilda 0,38 ball bilan 95-o‘rinni egallagan bo‘lsa, 2020 yil bo‘yicha 128 davlat orasida 0,40 ball bilan 89-o‘rinni egallab, 6 pog‘onaga ko‘tarilganligi mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi tizimli olib borilayotgan islohotlarning samarasidir. 2021-yilning 1-oktyabridan barcha davlat organlari va tashkilotlarida Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari tashkil etila boshladi.

Tahlil va natijalar

Islohotlarning ijobiy natijasini bugun ushbu yo‘nalishda konseptual ahamiyatga ega normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ma‘muriy islohotlarning amalga oshirilishi, aholining davlat organlariga nisbatan ishonchi ortishi misolida ko‘rish mumkin.

O'tgan yillarda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan muhim preventiv mexanizmlaryaratilganligi, davlat boshqaruvida byurokrtiyani kamaytirish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, davlat xizmatlarini ko'rsatish sifatini yaxshilash, raqamlashtirish orqali inson omilini kamaytirish borasida amalga oshirilgan choratadbirlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosatining muhim elementlari bo'lib xizmat qildi.

Birinchiidan, o'tgan yilda amalga oshirilgan ma'muriy islohotlar orqali "qo'l" boshqaruvidan "avtomatik" boshqaruv tizimiga o'tish jarayoni boshlandi. Xususan, ma'muriy islohotlar natijasida davlat boshqaruvi tizimining eng muhim bo'g'ini – ijro etuvchi hokimiyat yana-da ixchamlashib, takrorlanuvchi funksiyalar tugatildi. Eng asosiysi, byurokrtiya qisqartirildi.

Ikkinchiidan, Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaviy munosabatlarining oldini olishga qaratilgan preventiv mexanizmlar yaratildi. Xususan, Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlik bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini baholashga qaratilgan Ochiqlik indeksi joriy etildi. Shuningdek Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish bo'yicha "E-Antikorrupsiya" loyihasi ishga tushirildi.

Uchinchiidan, Davlat xizmatlarini ko'rsatish sifati yaxshilanib, ortiqcha tartibtaomillar qisqartirildi hamda elektron shaklda ko'rsatiladigan davlat xizmatlari soni oshirildi. Jumladan, 73 turdagi hujjat va ma'lumotlarni aholidan talab qilinishi bekor qilindi. 771 ta davlat xizmatlarining 360 dan ortig'i Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali elektron ko'rsatilmogda, shu jumladan, 240 dan ortiq xizmatlar tadbirkorlik subyektlari uchun mo'ljallangan. 59 turdagi davlat xizmatlarini ko'rsatish muddatlari qisqartirildi, ushbu xizmatlar oldin 30 kundan 90 kungacha muddatda ko'rsatilgan bo'lsa, endilikda 1 kundan 30 kungacha kamaytirildi.

To'rtinchiidan, Raqamlashtirish orqali "inson omili"ni kamaytirish maqsadida barcha sohalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish ishlari

yana-da rivojlantirildi. Xususan, “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari faoliyatini raqamlashtirish bilan bog‘liq 369 ta loyihalar amalga oshirildi. Masalan, iqtisodiy sohada “Litsenziya”, “E-Auksion”, “YERELEKTRON”, “Shaffof yo‘l”, “Shaffof qurilish”, “Davlat xaridlari elektron tizimi” va boshqa axborot tizimlari korrupsiya xavf-xatarlarini kamaytirishga samarali xizmat qilmoqda.

Beshinchidan, Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasini takomillashtirish, huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish maqsadida sohaga taalluqli 13 ta, shuningdek, boshqa sohalardagi islohotlar natijasida korrupsiya omillarini qisqartirishga qaratilgan 24 ta normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Bu borada ko‘plab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi natijasida davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida ochiqlik va shaffoflik ta‘minlanib, mansabdor shaxslarning aholi oldidagi hisobdorligi oshirildi, davlat boshqaruvida samarali va ta‘sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratildi [6].

Hozirgi kunda korrupsiyaga qarshi kurashishga mas‘ul bo‘lgan davlat organlari va ularning tizimlarida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid faoliyat yanada takomillashdi. Shu jihatdan qonunbuzarlik sodir etilishining oldini olish, korrupsiyaga qarshi kurashish, xizmat intizomi va qonunchilikni mustahkamlash hamda davlat organlarini nopok xodimlardan tozalash borasida aniq yo‘nalishga ega bo‘lgan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda [7].

Jamiyatning turli bosqich va jarayonlarida amalga oshiriladigan hech bir rasmiy, siyosiy, madaniy, iqtisodiy va boshqa munosabatlar odob qoidalarisiz amalga oshirilmaydi. Axloq-odob qoidalariga qisqa ta‘rif beradigan bo‘lsak, bu jamiyat hayotining barcha qatlamlarida turli shakllarda namoyon bo‘luvchi huquqiy, axloqiy, an‘anaviy va shu kabi odamlarning xulq-atvori, xatti-harakatlariga xizmat qilgan qat‘iy normalar, tavsiyalar, talablar yig‘indisidir.

Davlat xizmatchisi ahamiyat berishi lozim bo‘lgan odob qoidalariga to‘xtaladigan bo‘lsak, ular eng avvalo axloq normalariga asoslanadi. Zamonaviy amaliyotda davlat xizmatchilarida quyidagi jihatlar, ya‘ni mehnatsevarlik, punktuallik, xushmuomalalik,

chuqur mulohazalik, tinglay olish, beg'araz yordam, buyruq va ko'rsatmalarni o'z vaqtida bajarish, haqgo'ylik, aniqlik, adolatli qaror chiqarish va shu kabilar axloqiy sifatlarga taalluqlidir.

Darhaqiqat qonuniylik, adolatparvarlik, insonparvarlik, sotilmaslik va javobgarlik tamoyillari davlat xizmatchisi faoliyatini axloqiy baholash asosini tashkil qiladi. Shu sababli, davlat xizmatchisi beg'araz, mustaqil, halol va sotilmaydigan, haqiqatparvar, sezgir va kishilarga qayg'uruvchan, ya'ni insonparvar bo'lishi zarur hamda u o'zining shaxsiy manfaatlarini jamoatchilik manfaatlarini bilan moslashtirishi lozim. Korrupsiya, poraxo'rlik kabi illatlar yuqorida ko'rsatib o'tilgan tamoyillar va sifatlarning buzilishi uchun dalillar sifatida namoyon bo'lmasligi shart.

Xulosa va takliflar

Bizning fikrimizcha, quyidagi ta'rif eng keng qamrovli va keng tarqalgan deb hisoblanadi: Korrupsiya - bu davlat xodimlari va davlat funksiyalarini bajarishga vakolatli boshqa shaxslar o'zlarining lavozimlaridan, maqomlaridan va vakolatlaridan foydalangan holda shaxsiy manfaatlar uchun yoki guruh manfaatlarini uchun xudbin maqsadlarda hokimiyatning parchalanishidan iborat bo'lgan ijtimoiy hodisadir.

Yuqoridagi ta'riflarga asoslanib xulosa qilish kerakki, korrupsiya quyidagi xususiyatlarga ega:

- birinchi navbatda, fuqarolik jamiyati korroziyaga uchragan, anomiyaga, ya'ni qonuniy vositalar yordamida maqsadlarga erishishning iloji yo'qligi sababli shaxsning xatti-harakatlarida og'ish yuz beradigan ijtimoiy holatga aylanib ketadigan ijtimoiy hodisa, aksar hollarda hukumat apparatiga ishonchsizlik sifatida;
- ikkinchidan, ma'lum bir sub'ektlar doirasi - poraxo'r amaldorlar mavjud. Ular davlat organi xodimlari, mansabdor shaxslar, shuningdek xususiy sektorda boshqaruv funksiyalarini bajarishga vakolatli shaxslar bo'lishi mumkin;
- uchinchidan, yuqorida ko'rsatilgan sub'ektlar tomonidan o'zlarining rasmiy vakolatlari, rasmiy hokimiyat funksiyalari va davlat vakolatlarini suiiste'mol qilishlari va ulardan foydalanishlari;

- jinoiy faoliyat (harakat yoki harakatsizlik) ham shaxsiy boyitish maqsadida, ham boshqalarning manfaatlari uchun yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, korrupsiyani oldini olish uchun quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

– manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solishning tashkiliy-huquqiy asosini ishlab chiqish;

– manfaatlar to‘qnashuvi haqida xabar berish tartibini yo‘lga qo‘yish;

– manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi ma’lumotlarni oshkor qilish mexanizmlarini yaratish;

– manfaatlar to‘qnashuvi xolati yuzasidan qaror qabul qilish jarayonlaridagi xolislikni ta’minlash;

– manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish yuzasidan monitoringni amalga oshirish;

– manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish yo‘nalishida davlat xizmatchilarining bilim va ko‘nikmalarini oshirib borish;

– manfaatlar to‘qnashuvi holatlari haqidagi ma’lumotlarni keng jamoatchilik ishtirokida ko‘rib chiqilishi hamda ularning ochiqligi va shaffofligini ta’minlash bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1]. Bu haqda qarang: Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori A.Burxanovning “Tashkent Law Spring” II xalqaro yuridik forumidagi “Tartibga solish ta’sirini baholash va korrupsiyaga qarshi ekspertiza” mavzusida sessiyasidagi ma’ruzasi. Anticorruption.uz.23.04.2021.

[2]. Convention on Combating Bribery of Foreign Public Officials in International Business Transactions and related documents. [Электрон манба]. [URL:www.oecd.org/daf/antibribery/ConvCombatBribery_ENG.pdf](https://www.oecd.org/daf/antibribery/ConvCombatBribery_ENG.pdf).

[3]. Ismailov B.I. Korruptsiyaga qarshi kurash borasida xorijiy davlatlar amaliyoti va halqaro standartlar tizimi shakllanishi // O'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi Korruptsiyaga qarshi kurashish ilmiy-ta'lim markazi, YuMOM. 2019 y.

[4]. O'zbekiston Respublikasining 07.07.2008 yildagi "Birlashgan Millatlar Tashkilotining korruptsiyaga qarshi Konventsiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31 oktyabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida"gi Qonuni // [Elektron manba].URL:<https://lex.uz/docs/1369505>.

[5]. O'zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sonli Qonuni//[Elektron manba].URL:<https://lex.uz/docs/3088008>

[6]. <https://anticorruption.uz/oz/rasmiy-nutq>. Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori Akmal Burxanovning 2024-yil 3-may kuni III Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida "Obro', ishonchlilik va xavfsizlik: korruptsiyaga qarshi samarali siyosat va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash tufayli xorijiy investitsiya muhitini yaxshilash" mavzusida bo'lib o'tgan sessiyadagi nutqi.03.05.2024

[7]. Bu haqda qarang: A.Burxanov. "Korruptsiyaga qarshi kurashish umummilliy birdamlikni talab etadi". "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2021 yil 25 mart.